



NAMANGAN VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2021- yil 1- mart holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)






Mamlakatimizdagi kabi, viloyatimizda ham qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- mart holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2021- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)

3




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-fevral oylarida, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni


(yanvar-fevral oylarida)





Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)





Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yilning 1- mart holatiga ko'ra 1 060 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 483 taga yoki 1,8 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 1023 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 466 taga yoki 1,8 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 70 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 26 taga yoki 1,6 martaga oshganligini ko'rish mumkin.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni


(1- mart holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2021- yilning 1- mart holatiga ko'ra 19 192 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4 296 taga yoki 128,8 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 18 660 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4 088 taga yoki 128,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 945 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 166 taga yoki 121,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.






Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2021- yil 1- mart holatiga ko'ra 271 tani tashkil etib, ulardan 264 tasi yoki 97,4 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 31 taga yoki 112,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-fevral oylarida viloyatimizda 5 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- mart holatiga, birlikda)




**Namangan viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan kapitali
ishtirokidagi korxonalar soni**
(2021- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonona	xorijiy korxonona
Rossiya Federatsiyasi	55	43	12
Qozog'iston Respublikasi	13	9	4
Xitoy Xalq Respublikasi	46	26	20
Qirg'iz Respublikasi	9	8	1
Tojikiston Respublikasi	9	7	2
Turkiya Respublikasi	32	14	18
Hindiston Respublikasi	11	3	8
Janubiy Koreya Respublikasi	31	23	8
Singapur Respublikasi	4	2	2
Eron Islom Respublikasi	4	2	2

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- mart holatiga ko'ra, birlikda)



Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(2021- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)

10

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonona	xorijiy korxonona
Namangan viloyati	264	170	94
Namangan shahri	76	47	29
Mingbuloq	7	2	5
Kosonsoy	27	21	6
Namangan	17	16	1
Norin	10	6	4
Pop	26	17	9
To'raqo'rg'on	20	11	9
Uychi	16	14	2
Uchqo'rg'on	10	5	5
Chortoq	21	13	8
Chust	22	12	10
Yangiqo'rg'on	12	6	6

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Namangan shahrida 78 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 28,5 %), Kosonsoy 27 ta (10,2 %) Pop 26 ta (9,8 %), Chust 22 ta (8,3 %), Chortoq 21 ta (8,0 %), To'raqo'rg'on 20 ta (7,6 %) hamda Namangan 17 tani (6,4 %) tashkil etadi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)




2021- yil 1- mart holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Namangan shahri (34,0 %), Chust (8,3 %), Namangan (6,9 %), Uychi (6,6 %), To'raqo'rg'on (6,3 %) Pop va Kosonsoy (6,2 % dan %), Uchqo'rg'on (5,7 %), Chortoq (5,6 %), Yangiqo'rg'on (5,0 %), Norin (4,8 %), Mingbuloq (4,4 %) hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021- yil yanvar-fevral oylarida, birlikda)


2021- yilning yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Namangan shahrida (27,0 %), Chortoq (9,9 %), Chust (9,6 %), To'raqo'rg'on (9,0 %), Norin (7,6 %), Kosonsoy (6,4 %), Mingbuloq va Pop (5,7 % dan), Uychi (5,6%), Namangan (5,0 %), Uchqo'rg'on (4,3 %), Yangiqo'rg'on (4,2 %) hissalariga to'g'ri keladi.



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni


(2021- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)

12



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni


(2021- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)



2021- yil 1- mart holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Namangan shahrida (38,2 %), Uychi (7,1 %), Pop (6,6 %), Namangan (6,5 %), Chortoq (6,4 %), Kosonsoy (6,0 %), Chust (5,4 %), Yangiqo'rg'on (5,3%), Norin (5,1 %), To'raqo'rg'on (5,0 %), Uchqo'rg'on (4,8 %), Mingbuloq (3,6 %) tumanlari hissasiga tegishli.

Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi


(2021- yil 1- mart holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)



2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, viloyatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni



(2021- yilning yanvar-fevral oyida, birlikda)



2021- yilning yanvar-fevral oylarida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda To'raqo'rg'on (41,4 %), Namangan (14,3%), Chortoq va Namangan shahri (11,4 % dan), Chust va Yangiqo'rg'on (5,7 % dan), Uychi va Kosonsoy (2,9%), Mingbuloq, Uchqo'rg'on va Norin (1,4 % dan) tumanglari hissasiga tegishli.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2021- yilning yanvar-fevral oyida, birlikda)



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.